# Bilim olishda innovatsion yondashuv

Ta’lim tizimida innovatsion faoliyat samaradorligini oshirish maqsadida “Suv xoʻjaligini tashkil etish va boshqarish” fakulteti, “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasining katta oʻqituvchisi Raxmataliev Muzaffar Eshdavlatovich tomonidan ijtimoiy tarmoq orqali “Statistika” fanidan masofaviy ta’lim texnologiyasi joriy etildi.

Ushbu ta’lim texnologiyasi doirasida talabalarning dars jarayonida olgan nazariy, amaliy bilimlarini yanada shakllantirish,rivojlantirish, mustahkamlash va ragʻbatlantirish maqsadida 2019 yil 1 apreldan 30 maygacha "BILIM OLISHDA INNOVATSION YONDASHUV” loyihasi doirasida ijtimoiy tarmoq orqali “Statistika” fanidan intellektual koʻrik -tanlovi e’lon qilindi.

Ushbu tanlovda faol ishtirok etgan va gʻoliblikni qoʻlga kiritgan talabalarni taqdirlash maqsadida 2019 yil 7 iyun kuni soat 15-00 da B-108 xonada tanlov gʻoliblarini taqdirlash tadbiri boʻlib oʻtdi. Tanlovda gʻoliblikni qoʻlga kiritgan 2 nafar talaba 2 kurs 3 guruh talabalari Maxmudova Nargiza Davlat qizi va Nuraliev Samandar Rustam oʻgʻlilari Redmi 6Atelefoni va faxriy yorliqlar bilan taqdirlandi. Bundan tashqari tanlovda faol ishtirok etgan 8 nafar talaba 1 kurs 4 guruh talabalari Isroilov Mansur Yoqubjon oʻgʻli, Abdusalomov Fatxulla Olim oʻgʻli va Jamolova Gulhayo Bobirovna, 2 kurs 3 guruh talabalari Toxirov Shoxrux Janobil oʻgʻli, Xabibullaeva Lobar Kamaletdinova va Roʻzieva Shakina Rustam qizi 2 kurs 2 gurux talabalari Poʻlatxonova Saidaxon Alisherxon qizi va Dosimov Javohir Rustamovichlar har xil turdagi badiiy kitoblar va fahriy yorliq bilan taqdirlandi. Taqdirlash tadbiri koʻtarinki ruhda oʻtdi.

“Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasining katta oʻqituvchisi Raxmataliev Muzaffar Eshdavlatovich axboroti

Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov